

**UrDU O‘zbek tilshunosligi kafedrasi
dotsenti, f.f.d. Primov Azamat
Iskandarovich taqrizi ostida**

Alimova Shahnoza Maqsudovna
PhD, Urganch davlat universiteti dotsenti,
O‘zbekiston,
Email: shaxnozaalimova103@urdu.uz
Olimboyeva Komila Umarbek qizi
Urganch davlat universiteti talabasi

XORAZM SHEVALARINING O‘RGANILISHIGA DOIR

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada o‘zbek xalq shevalarining o‘rganilishi xususida, jumladan, xorazm shevalarining jahon va o‘zbek olimlari tomonidan o‘rganilishi hamda bugungi kunda tadqiqini kutayotgan masalalar tahlilga tortilgan.

KALIT SO‘ZLAR: o‘zbek shevalari, xorazm shevalari, o‘zbek dialektologiyasi, adabiy til tarixi, tarqalish areali, lug‘aviy qatlam, shevalar tasnifi.

KIRISH. O‘zbek xalq shevalarini o‘rganish sohasida rus tilshunosligida Y.D.Polivanov, A.K.Borovkov, K.K.Yudaxin, V.V.Reshetov va boshqa olimlarning xizmatlari benihoya katta ahamiyatga ega¹.

O‘zbek dialektologiyasida o‘zbek xalq shevalarini o‘rganish masalasi XX asr boshlaridan boshlangan. Bu yo‘nalishda G‘.O.Yunusov, Sh.Shoabdurahmonov, S.Ibrohimov, B.Jo‘rayev, A.Aliyev, A.Shermatov, B.Egamov, H.G‘ulomov, X.Doniyorov, M.Mirzayev, I.Shamsiddinov, Q.Muhammadjonov, A.Jo‘rayev, Y.Ibragimov, N.Murodovalarning² ishlari diqqatga molikdir. Bu olimlar o‘z tadqiqotlarida o‘zbek shevalarini fonetik, morfologik, leksik hamda qiyosiy tahlil etishning ilmiy asoslarini yaratib berdilar.

¹ Поливанов Е.Д. Узбекская диалектология и узбекский литературный язык. – Ташкент: Узгосиздат, 1933.– 45 с.; Боровков А.К. Ўзбек шева-лахжаларини текширишга доир савол-жавоблар. – Тошкент, 1944. – 11 б.; Юдахин К.К. Некоторые особенности Карабулакского говора/Ўзбек диалектологиясидан материаллар, Т 1. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1957. – Б.31-57; Решетов В.В.Кураминские говоры Ташкентской области (фонетическая, морфологическая система): Автореф. дисс...д-ра филол.наук. – Ташкент:1951. – 20 с.

² Юнусов F.O. Ўзбек шеваларининг таснифида бир тажриба. – Тошкент: Ўздавнашр, 1935. – 64 б.; Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1962. – 372 б.; Иброҳимов С. Ўзбек тилининг Андижон шеваси. – Тошкент: Фан, 1967. – 260 б.; Жўраев Б. Юкори Қашқадарё шевалари. – Тошкент: Фан, 1969.–168 б.; Алиев А. Ўзбек диалектологиясидан материаллар (Наманган шевалари). – Тошкент: Фан, 1974. – 218 б.; Шерматов А. Куйи Қашқадарё ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1972. – 168 б.; Узбекские народные говоры Кашкадарьинской области. – Ташкент: Фан, 1978. – 144 с.; Эгамов Б. Самарқанд области Фаллаорол шеваси. – Самарқанд, 1970. – 136 б.; Ғуломов Ҳ. Чил сўзининг қўлланилиши ва маънолари // Ўзбек шевалари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1966. – Б.293-313. Дониёров Х. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. – Тошкент: Фан, 1979. – 160 б.; Мирзаев М. Ўзбек тилининг Бухоро группа шевалари. – Тошкент: Фан, 1969.–156 б.; Диалектал сўзлар (Бухоро диалекти материаллари бўйича) / Ўзбек шевалари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1966. – Б.314-325; Шамсиддинов И. Каракульский говор узбекского языка. Автореф.дисс...канд.филол. наук. – Ташкент, 1965. – 23 с.; Қоракўл шеваси лексикасидан / Ўзбек шевалари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1966. – Б.430-439; Муҳаммаджонов Қ. Жанубий Қозогистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1983. – 168 б.; Джурاءв А. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. – Ташкент: Фан, 1991. – 220 с.; Ибрагимов Ю. Исследования узбекских говоров Приаралья. – Нукус: Билим, 1992. – 148 с.; Лексика узбекских говоров Приаралья . – Нукус: Билим, 1996. – 156 с.; Жанубий Оролбўйи ўзбек шевалари тадқики: Филол.фан.д-ри...дисс. – Тошкент, 2000.–370 б.; Муродова Н. Ўзбек тили Навоий вилояти шеваларининг лингво-ареал талқини: Филол.фан.д-ри...дисс. – Тошкент, 2006. – 236 б.

MUHOKAMA. O‘zbek xalq shevalari orasida o‘ziga xos jihatlari bilan ajralib turuvchi xorazm shevalari lisoniy xususiyatlari bo‘yicha o‘zbek shevashunosligida bir qancha ishlar amalga oshirilgan. Xorazm shevalari bilan bog‘liq dastlabki yirik tadqiqotlardan biri esa Y.D.Polivanov qalamiga mansubdir³.

Shuningdek, Xorazm shevalarini maxsus o‘rgangan Xorazm shevalarining yetuk tadqiqotchisi Fattoh Abdullayev ilmiy ishlari⁴ o‘zbek adabiy tilining tarixi, dialektologiyasi, leksikasi, fonetikasi, grammatikasi, shuningdek, badiiy nutq masalalariga bag‘ishlangan. F.Abdullayev Xorazm shevalarini tadqiq qilib, ularning dialektologik xaritasini tuzgan va tasnifini bergan. Uning “Xorazm shevalari” kitobi o‘zbek dialektologiyasining muhim tadqiqotlaridan hisoblanadi. Ushbu kitob tarkibida xorazm shevalarining lug‘ati ham berilgan.

Yanan A.Ishayev xorazm shevalarini mukammal tadqiqini amalga oshirgan. U o‘z tadqiqotlarida, asosan, Qoraqalpog‘istondagи o‘zbek shevalari o‘rganilgan bo‘lishiga qaramay, shevalarning tarqalish areali hamisha ma’muriy bo‘linishlarga muvofiq bo‘lmасligi e’tiborga olinsa, undagi materiallar, xususan, Qoraqalpog‘iston hududidan to‘plangan faktlar Xorazm shevalari tadqiqi uchun ham obyekt bo‘la oladi. Olimning “Qoraqalpog‘istondagи o‘zbek shevalari” monografiyasi⁵, unda berilgan lug‘at bugungi kunda ayni shu sheva vakillari nutqida ham kam ishlatalidigan, deyarli iste’moldan chiqib ketgan ayrim so‘zlarni o‘zida aks ettirgani bilan ahamiyatlidir.

Xorazm shevalari tadqiqiga qo‘l urgan olimlardan yana biri E.O‘rozov hisoblanadi. Uning “Janubiy Qoraqalpog‘istondagи o‘zbek shevalari”⁶ kitobida mazkur hududdagi sheva leksikasining lug‘aviy qatlamlari xususida to‘xtalib o‘tgan. Asarda turkiy qatlam yoritilishida ham shu holatni ko‘rish mumkin⁷.

Xorazm shevalarini aynan tadqiq qilgan, o‘g‘uz lahjasining o‘ziga xos xususiyatlarini yorqin yorotib bera olgan olim professor O.Madrahimovdir. Uning qalamiga mansub ishlar, asosan,

³ Поливанов Е.Д. Избранные работы: Труды по восточному и общему языкоznанию / Редколлегия: И.Ф.Вардуль (предс.), В.М.Алпатов, Ф.Д.Ашнин, В.В.Иванов, Л.Р.Концевич, А.А.Леонтьев; Институт востоковедения АН СССР. – М.: Наука (ГРВЛ), 1991. – 624 с. Поливанов Е.Д. Этнографическая характеристика узбеков, вып. 1. Происхождение и наименование узбеков. – Ташкент, 1926. –31 с.; Его же. Некоторые фонетические особенности каракалпакского языка («Труды Хорезмской экспедиции»). –Ташкент, 1933. – 27 с.; Его же. Узбекская диалектология и узбекский литературный язык. (К современной стадии узбекского языкового строительства). – Ташкент, 1933. – 45 с.; Его же. Материалы по грамматике узбекского языка, вып. I. Введение. – Ташкент, 1935. – 48 с. (с прил. схемы классификации узбекских говоров)

⁴ Абдулаев Ф. Хоразм шевалари. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1961.–348 б.

⁵ Ишаев А. Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1977. – 176 б.

⁶ Ўрозов Э. Жанубий Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1978. – Б. 79–108.

⁷ Ўрозов Э. O‘sha joyda.

o‘g‘uz lajhasi shevalari leksikasi doirasida bajarilgan⁸. “O‘zbek tili o‘g‘uz lajhasingning Xiva shevasi” kitobida o‘g‘uz lajhasingning fonetik, leksik, grammatick xususiyatlari batafsil yoritilgan.

Orolbo‘yi shevalarining ayrim jihatlari tadqiqida Y.Ibragimov tomonidan bajarilgan ishlar alohida ahamiyatga ega. Olimning nomzodlik⁹ va doktorlik¹⁰ dissertatsiyalari materiallari Xorazm shevalarini Orolbo‘yi o‘zbeklari shevalari bilan qiyosiy tadqiq qilishda g‘oyat muhim manbadir. Xususan, olim doktorlik dissertatsiyada quyidagilar muhim fikrlarni bayon qiladi: “So‘zlarning lajhaviy o‘zgarishi bilan bog‘liq ko‘pgina masalalar bevosita yoki bilvosita adabiy nutq madaniyati bilan bog‘liq”¹¹. Mazkur dissertatsiya shevashunoslik va lisoniy jug‘rofiyaning aniq muammolari bo‘yicha monografik tadqiqot sifatida doktorantlar, talabalar, ona tili o‘qituvchilariga adabiy nutq ko‘nikmalarini o‘stirish va takomillashtirishda beqiyos yordam berishi shubhasiz. O‘zbek dialektologik atlasining yaratilishida ham bu tadqiqot ahamiyatli bo‘lib, til taraqqiyotini tarixiy tadqiq etish, bu masalada hozirgacha chop etilgan ishlar saviyasining tegishli salmog‘ini belgilash, til hodisalari variantlarining hududiy tarqalish manzarasi haqida aniq tasavvur olish imkonini beradi.

R.Yo‘ldoshev tomonidan bajarilgan dissertatsiya¹²da Toshhovuz shevalarining lingvistik jihatdan o‘rganilishi va tasnifi, shevalardagi leksik qatlamlar, shevalarning leksik-semantik xususiyatlari masalasiga katta e’tibor qaratilib, lug‘at va matnlar ilova qilingan. Muhimi, lug‘at qismiga 3000 dan ortiq so‘z kiritilgan bo‘lib, ularning 2000 ga yaqini ilk bor leksikografik manbalardan joy olgan¹³. M.Saparovning tadqiqoti¹⁴ Xorazm o‘g‘uz shevalarini turkman tili materiallari bilan qiyosiy tadqiqida muhim ahamiyatga ega ilmiy ishlardan biri sanaladi.

XULOSA. O‘zbek shevalari tarkibiga kiruvchi xorazm shevalari ham o‘ziga xos jihatlari bilan shu bugunga qadar ko‘plab tadqiqotchilarining diqqatini tortgan. O‘zbek xalq shevalari anchagina tadqiq qilingan bo‘lishiga qaramay, Xorazm shevalari leksikasi va grammatickasi, shuningdek, uni areal jihatdan hududlar kesimida tizimli tadqiq etilmagan. Bu masala ayrim olimlar tomonidan umumiy tarzda yoki yo‘l-yo‘lakay tilga olingan, xolos. Bugun tadqiqotchilar oldida o‘zbek xalq shevalarini zamonaviy yondashuvlar asosida tadqiq qilish, o‘zbek tilining dialektal

⁸ Мадраҳимов О. Ўзбек тили ўғуз лаҳжаси лексикаси. – Тошкент, 1973. – Б. 49; ўша муалл. Ўзбек тили ўғуз лаҳжасининг қисқача қиёсий луғати. – Урганч: 1999. – Б. 194; Мадраҳимов О. Ўғуз лаҳжасида -ли аффиксининг эволюцияси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1971. – №1.

⁹Ибрагимов Ю.М. Морфология ходжелийско-кунградских говоров узбекскою языка: Автореф. дисс.канд.филол.наук. – Ташкент, 1974. – 44 с.

¹⁰ Ибрагимов Ю.М. Исследования узбекских говоров Приаралья: автореферат дис. ... д-ра филол... наук: – Ташкент, 1994. – 51 с.

¹¹ Ибрагимов Ю.М. Юқоридаги манба. – Б.32.

¹² Йўлдошев Р. Тошховуз вилоятидаги ўзбек шеваларининг лексик хусусиятлари: Филол.фан.н-ди...дисс. – Тошкент, 2002. – 289 б.

¹³ Йўлдошев Р. Юқоридаги манба. – Б.6.

¹⁴ Сапаров М. Лексико-семантические особенности огузского наречия узбекского языка (в сравнении с туркменским языком): Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1983. – 24 с.; Шу муаллиф. Хоразм воҳасидаги туркий тилларнинг ўзаро муносабатлари. – Тошкент: Фан, 1988. – 118 б.

xaritasini yaratish, shuningdek, o‘zbek shevalari lug‘atini yangilash kabi bir qator muhim vazifalar turibdi.

Foydalanimgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1961.–348 б.
2. Алиев А. Ўзбек диалектологиясидан материаллар (Наманган шевалари). – Тошкент: Фан, 1974. – 218 б.;
3. Боровков А.К. Ўзбек шева-лаҳжаларини текширишга доир савол-жавоблар. – Тошкент, 1944. – 11 б.;
4. Джураев А. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. – Ташкент: Фан, 1991. – 220 с.;
5. Дониёров Х. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. – Тошкент: Фан, 1979. – 160 б.;
6. Жанубий Оролбўй ўзбек шевалари тадқиқи: Филол.фан.д-ри...дисс. – Тошкент, 2000.–370 б.;
7. Ибрагимов Ю. Исследования узбекских говоров Приаралья. – Нукус: Билим, 1992. – 148 с.; Ибрагимов Ю.М. Морфология ходжелийско-кунградских говоров узбекскою языка: Автореф. дисс.канд.филол.наук. – Ташкент, 1974. – 44 с.
8. Иброҳимов С. Ўзбек тилининг Андижон шеваси. – Тошкент: Фан, 1967. – 260 б.;
9. Ишаев А. Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1977. – 176 б.
10. Йўлдошев Р. Тошховуз вилоятидаги ўзбек шеваларининг лексик хусусиятлари: Филол.фан.н-ди...дисс. – Тошкент, 2002. – 289 б.
11. Мадраҳимов О. Ўзбек тили ўғуз лаҳжаси лексикаси. – Тошкент, 1973. – Б. 49;
12. Мадраҳимов О. Ўзбек тили ўғуз лаҳжасининг қисқача қиёсий лугати. – Урганч: 1999. – Б. 194;
13. Мирзаев М. Ўзбек тилининг Бухоро группа шевалари. – Тошкент: Фан, 1969.–156 б.;
14. Муродова Н. Ўзбек тили Навоий вилояти шеваларининг лингво-ареал талқини: Филол.фан.д-ри...дисс. – Тошкент, 2006. – 236 б.
15. Муҳаммаджонов Қ. Жанубий Қозогистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1983. – 168 б.;
16. Поливанов Е.Д. Материалы по грамматике узбекского языка, вып. I. Введение. – Ташкент, 1935. – 48 с. (с прил. схемы классификации узбекских говоров)
17. Поливанов Е.Д. Некоторые фонетические особенности каракалпакского языка («Труды Хорезмской экспедиции»). – Ташкент, 1933. – 27 с.;
18. Поливанов Е.Д. Узбекская диалектология и узбекский литературный язык. – Ташкент: Узгосиздат, 1933.– 45 с.;
19. Решетов В.В. Курминские говоры Ташкентской области (фонетическая, морфологическая система): Автореф. дисс...д-ра филол.наук. – Ташкент: 1951. – 20 с.
20. Сапаров М. Лексико-семантические особенности огузского наречия узбекского языка (в сравнении с туркменским языком): Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1983. – 24 с.;
21. Сапаров М. Хоразм воҳасидаги туркий тилларнинг ўзаро муносабатлари. – Тошкент: Фан, 1988. – 118 б.
22. Ўрозов Э. Жанубий Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1978. – Б. 79–108.
23. Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1962. – 372 б.;
24. Эгамов Б. Самарқанд области Ғаллаорол шеваси. – Самарқанд, 1970. – 136 б.;
25. Юдахин К.К. Некоторые особенности Карабулакского говора/Ўзбек диалектологиясидан материаллар, Т 1. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1957. – Б.31-57;
26. Юнусов F.O. Ўзбек шеваларининг таснифида бир тажриба. – Тошкент: Ўздавнашр, 1935. – 64 б.;